

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI
KIRUVCHILAR UCHUN

REPITITION TEST

SAVOLLAR KITOBII

SAVOLLAR KITOBII RAQAMI:

678

BLOKLAR:

Kimyo (3.1)

Biologiya (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

+998974567172 raqamiga SMS yuboring
va natijangizni bilib oling!

678*[JAVOBLAR]

Namuna: 678*ABCDBBDA....

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

KIMYO

1. 35 g alyuminiy va Na_2CO_3 dan iborat aralashmani ochiq tigelda yuqori temperature kislorod atmosferasida qizdirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning massasi 37,9 g, undagi moddalarning massa ulushlarini hisoblang.
A) 12,7% va 86,3% B) 11% va 88%
C) 11,7% va 88,3% D) 12,5% va 88,2 %
2. **α -aminokislotalar qizdirilganda qaysi birikmaga aylanadi?**
A) to'yinmagan kislota B) diketopipirazin
C) lakton D) peptid
3. **NO_2 , alken va aromatik uglevodorodan iborat aralashma bor. Moddalar mos ravishda 6:2:1 (mol) nisbatda aralshtirilganda ularning atomlari soni o'zaro teng bo'ladi. 1,8 mol shunday aralashmadagi uglerod atomlari sonini aniqlang.**
A) $1,69 \cdot 10^{24}$ B) $3,25 \cdot 10^{24}$
C) $2,65 \cdot 10^{24}$ D) $2,4 \cdot 10^{24}$
4. **200 ml 2M li kumush nitrat eritmasini grafit elektrodlar yordamida Ag^+ ionlari to'liq chiqib ketgunga qadar elektroliz qilindi. Ajratib olingan katodni to'liq eritish uchun 100 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Bunda qancha hajm gaz (l, n.sh) ajralgan?**
A) 24,64 B) 20,16 C) 4,48 D) 58,24
5. Mo'l miqdorda uglerod Al_2O_3 va CaO aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 3,9 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 1 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini (g) aniqlang. (Havo tarkibida hajm bo'yicha 20% O_2 bor)
A) 6,8; 8,4 B) 13,6; 16,8
C) 6,8; 0,34 D) 3,4; 4,2
6. **Mis(II) sulfat eritmasiga massasi 33,6 g temir plastinka tushirildi. Biroz vaqtdan keyin plastinka eritmadan olinib quritildi. Plastinkaning massasi 36,8 g ga teng bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan misning massasini(g) aniqlang.**
A) 32 B) 8 C) 25,6 D) 3,2
7. Noma'lum III valentli oksidining ekvivalent molyar massasi 12,667 ga teng bo'lsa, nom'alum elementni aniqlang.
A) kalsiy B) alyuminiy C) magniy D) azot
8. Adenindagi ixtiyoriy 2 ta vodorod atomi metil guruhiga almasha, uning m.a.b qancha bo'ladi?
A) 168 B) 167 C) 163 D) 183
9. A va B moddalar ($2\text{A}+\text{B}=\text{C}$ reaksiya bo'yicha) konsentratsiyasi mos ravishda 0,3 va 0,5 M ga teng. Tezlik konstantasi 0,8 l²/mol²·min bo'lsa, reaksiya tezligini aniqlang. Birozdan so'ng A modda konsentratsiyasi 0,1 M ga kamaysa, unda tezlik qiymati qanday bo'ladi?
A) 0,018; 0,032 B) 0,036; 0,0144
C) 0,036; 0,0032 D) 0,018; 0,0122
10. Metan gazi bilan to'ldirilgan idishning massasi 16 g. Idish bo'shatildi va xuddi shunday sharoitda argon gazi bilan to'ldirilganda 22 g keldi. Idish yana bo'shatildi va xuddi shunday sharoitda karbonat angidridi va qandaydir gazning teng hajmdagi aralashmasi bilan to'ldirildi. SHunda massa 20 g keldi. Noma'lum gazni toping.
A) silan B) ammiak C) kislorod D) neon
11. Noma'lum II valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 40 (g/mol·ekv) ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) Ca B) Cu C) Mg D) Zn
12. **DNK va aminokislotalar almashinuvida, uzum hosildorligini oshirish bilan birga mevasi tarkibida qand moddalarining ko'payishiga yordam beradi. muhim element qaysi.**
A) Co B) Zn C) Fe D) Cu
13. 50,2 g 67,73 %li kumush nitrat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida $15,05 \cdot 10^{23}$ ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Necha gramm suv elektrolizga uchraganini aniqlang.
A) 0,9 B) 18 C) 6,3 D) 7,2
14. 48 g molibden X elementi bilan to'liq reaksiyaga kirishib, Mo_2X_3 birikmasini hosil qiladi. Barcha Mo_2X_3 bariy bilan BaX tarkibli birikma hosil qiladi. Agar BaX kaliy to'liq reaksiyaga kirishib 82,5 g K_2X hosil qilsa, X ning atom massasini toping? ($M_o = 96, K = 39$)
A) 32 B) 16 C) 78 D) 28
15. 24,6 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kristallogidrat 37,4 ml suvda eritilganda eruvchanligi 24 g bo'lgan tuzning to'yingan eritmasi hosil bo'ldi. Metallni toping.
A) Fe B) Mn C) Al D) Mg
16. Karbomid molekulasida tarkibidagi sp^3 sp^2 va sp gibrid orbitalar sonini mos ravishda aniqlang
A) 8; 6; 0 B) 12; 3; 0
C) 0; 12; 0 D) 4; 9; 0
17. Organizmda qaysi element miqdori kamayganda tishlar yemirila boshlaydi?
A) Ca B) P C) Fe D) F
18. Noma'lum MeOH 40%li eritmasining 240 g miqdorini to'la neytrallash uchun 1 mol/litr sulfat kislota eritmasidan 320 ml sarflandi. Noma'lum metallni aniqlang.
A) Rb B) Cs C) K D) Na
19. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma

tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, litiyning massasini (g) hisoblang

A) 0,7 B) 2,8 C) 2,1 D) 1,4

20. Molekulyar og'irligi 140000 ga teng bo'lgan polietilenning polimerlanish darajasini toping.

A) 1000 B) 100 C) 5000 D) 500

21. Alizaringa aluminiy gidroksid qo'shilsa, qanday rang hosil bo'ladi?

A) oq B) yashil
C) och qizil D) to'q binafsha

22. m-ksilol ozonlandi va hosil bo'lgan modda suvda eritildi. Hosil bo'lgan organik modda(lar) tarkibida nechta sp^3 orbital bo'ladi

A) 4 B) 16 C) 8 D) 12

23. Oddiy bog'langan uglerod atomlarida C-C masofa (nm)?

A) 0,120 B) 0,134 C) 0,124 D) 0,154

24. Alkan stexiometrik nisbatdagi kislorodda to'liq yondirilganda olingan gazlar aralashmasining miqdori (mol) dastlabki alkan miqdoridan 9 marta kata bo'lsa, alkanni va uning izomerlari sonini aniqlang. (suv bug'I kondensatlanmagan)

A) pentan, 3 ta B) heptan, 9 ta
C) butan, 2 ta D) geksan, 5 ta

25. X mol (suvda eruvchan) Me_2SO_4 va 208 g $BaCl_2$ tutgan eritmalar 500 g dan aralashtirilganda Y g 19,43% li eritma olindi. Me ni aniqlang.

A) Rb B) Li C) K D) Na

26. Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3 gibrid orbitallar soni 1,25 marta kamaydi. Spirt formulasini aniqlang.

A) butanol B) propanol
C) metanol D) etanol

27. Reaksiya natijasida 29,8 l (25^0 C, 207, 85 kPa) azot molekulasi hosil bo'lsa, $(NH_4)_2Cr_2O_7$ ni parchalash uchun sarflangan issiqlik miqdorini kJ da aniqlang. $(NH_4)_2Cr_2O_7$, Cr_2O_3 va H_2O larning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 1808 kJ, 1141 kJ, 286 kJ.

A) 285 B) 4,5 C) 252 D) 1192,5

28. Tabiiy gips $150-170^0C$ da qizdirilganda tarkibidan $3/4$ qism suv chiqib alebastr ($CaSO_4 \cdot 0,5H_2O$) ga aylanadi, gipsdagi suvsiz tuzning massa ulushini(%) aniqlang.

A) 79,1 B) 93,8 C) 16,56 D) 6,2

29. Reaksiya natijasida 5,6 g azot hosil bo'lishi uchun ammoniy dixromatni parchalashga sarflangan issiqlik miqdorini (kJ) aniqlang. (ammoniy dixromat, xrom(III) oksid va suvlarning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 1808 kJ/mol, 1141 kJ/mol va 286 kJ/mol)

A) 1192,5 B) 285 C) 22,8 D) 95,4

30. Natriy va kalsiy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi, aralashmaning massasidan

288g ga kam bo'lsa, aralashmadagi Na_2HPO_4 ning massasini (g) aniqlang. $m(Na+P)=139$ g

A) 204 B) 142 C) 138 D) 136

BIOLOGIYA

31. Odam ajdodlari orasidan Homo erectus turiga mansub bo'lgan turlarni aniqlang.

1) pitekantroplar; 2) paleoantroplar; 3) sinantroplar;
4) kromanyonlar;
5) neandertallar.

A) 1,3 B) 1,2 C) 2,3 D) 4,5

32. Kartoshka tugunagining ko'k-binafsha rangini dominant F geni, pushti rangini dominant G geni namoyon qiladi. Lekin

bu genlarning faoliyati dominant H geni bo'lmasa yuzaga

chiqmaydi. Genotipda F va G genlari dominant H geni bilan

uchrashganda tugunak qizil-binafsha rang bo'ladi, boshqa

holatlarda tugunak oq rangda bo'ladi. Quyidagi

chatishtirishlarning qaysi birida genotip bo'yicha nisbat

1:1:1:1:1:1:1

A) ffggHH x FFGGhh B) FfGgHh x ffgghh
C) ffgghh x FFGghh D) FfGgHH x FfGGHH

33. Tiroksin gormonining tarkibida uchraydigan aminokislotani belgilang.

A) tirozin B) treonin
C) triptofan D) glutamin

34. Suv qirqqulog'iga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1)ildizsiz o'simlik; 2)gidrofit o'simlik; 3)barglari uchtadan joylashgan; 4)to'pguli suvdan yuqoriga chiqib turadi; 5)suvdagi bargi asosida sporalari mevasi o'rnashgan; 6)hasharotxo'r o'simlik; 7)murtak xaltasiga ega; 8)uchinchi bargi suv tagida osilib turadi.

A) 2,4,7 B) 1,4,6 C) 1,5,8 D) 5,6,7

35. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.

1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulkisi

A) 1,2,5 B) 3,4,6 C) 3,4,5 D) 2,5,6

36. Diploid navli o'simlik xromosomalarining gaploid to'plami $n=18$ ga teng bo'lsa, bu o'simlik tetraploid ($4n$) navli formasining quyidagi tana qismlari hujayra yadrosida xromosomalar soni qancha bo'lishini aniqlang.

a)barg og'izcha hujayralari; b) urug' endospermi; c) birlamchi jinsiy hujayrasi; d) kollennixima hujayralari.

A) a-36; b- 54; c- 18; d- 36
B) a-72; b- 108; c- 72; d- 72

- C) a-18; b- 54; c- 36; d- 72
D) a-36; b- 54; c- 36; d- 36
37. Ko'p urug'li quruq(a) va bir urug'li ho'l (b) mevali o'simliklarni ko'rsating.
1.namatak 2.lola 3.o'rik 4.behi 5.olcha 6.yerbag'ir tugmacha gul
A) a-2 b-3,5 B) a-4 b-3,5
C) a-1 b-3,4 D) a-6 b-1,4
38. Juft (a) va toq (b) ayirish organlariga ega bo'lgan organizmlarni ko'rsating.
1-letyaga, 2-kalmar, 3-qiloyoq, 4-kanna, 5-bitiniya, 6-tridakna, 7-dafniya, 8-neraida, 9-dreysena, 10-perlovisa, 11-semga
A) a-1,3,4,7,8 b-2,5,6,9,10,11
B) a-1,4,7,8,11 b-2,3,5,6,9,10
C) a-1,3,4,7,8,11 b-2,5,6,9,10
D) a-1,3,7,8 b- 2,4,5,6,9,10,11
39. Quyidagi fikrlar qaysi o'simlikka tegishlilikini aniqlang.
Gulkosacha changchilari 5 tadan poyasi kambiyli yog'onlasha oladi
A) olg'i, baqlajon, zira
B) ituzum, kartoshka, tok
C) alqor, shashir, shirach
D) qashqarbeda, burchoq, qovoq
40. Bir sinfga mansub o'simliklar navlarini aniqlang.
A) Zarafshon, Buxoro-9, Sangzor
B) Vatan, Sangzor, Yulduz
C) Zarg'aldoq, Nimrang, Samarqand-3
D) Yulduz, Toshkent-1, Ulug'bek-600
41. Issiq vaqtda odam organizmida qonning termoregulyatsiya ya'ni tana haroratini doimiy saqlash funksiyasi qanday amalgam oshadi
1-tanadagi qon tomirlar torayadi; 2-qon tananing yuza qismidagi tomirlarda to'planadi; 3-tananing tashqi yuzasidagi qon tomirlar torayadi; 4-qon tananing yuza qismidagi tomirlarda to'planadi; 5-qon organizmdan tashqi muhitga issiqlik ajratishi ko'payadi; 6-issiqlikning nurlanishi ter bezlaridan ajralgan suyuqlikning bug'lanishi bilan amalgam oshadi; 7-odam tanasining ichki bo'shliqdagi gazlar kengayadi;
A) 1,3,4,5; B) 4,6,7;
C) 1,2,4,5; D) 3,4,6;
42. Tuzilishi uch qavatdan iborat a`zolari ajratilgan.
a – yurak devori; b – buyrak to`qmasi; c – suyak to`qmasi; d – tish tuzilishi; e – bosh miya po`stlog`i; f – orqa miyani o`rab turuvchi parda; g – teri; h – alveolalar; j – buyrakusti bezi;
A) a,d,f,j B) b,c,d,f
C) b,c,e,h D) a,d,f,g
43. Odam organizmida yurak 4 ta kameradan iborat bo'lib, ularning ishlashi siklni tashkil etadi. Yurakning chap bo'lmasi qisqargan vaqtda qaysi klapanlar ochiq (1), qaysilari yopiq (2) bo'ladi?
a) chap bo'lmacha va chap qorincha orasidagi ikki tavaqali klapan;
b) o'ng bo'lmacha va o'ng qorincha orasidagi uch tavaqali klapan, c) chap qorincha va o'pka arteriyasi orasidagi yarimoysimon klapan d) o'ng qorincha va o'pka arteriyasi orasidagi yarimoysimon klapan, e) chap bo'lmacha va aorta orasidagi yarimoysimon klapan, f) o'ng va chap qorinchalar orasidagi uch tavaqali klapan; g) chap qorincha va aorta orasidagi yarimoysimon klapan.
A) 1-d,f, 2-b, c B) 1-a; 2-g
C) 1-a, d,g; 2-c,e D) 1-g; 2-a
44. Chuchuk suvlarda uchrovchi qisqichbaqasimonlarni belgilang
(A.M.Muhammadiyev o'rgangan)
1-dafniya; 2-yonlab suzar; 3-siklop; 4-krab; 5-omar; 6-suv xo'tikchasi; 7-daryo qisqichbaqasi
A) 1,2,3,7; B) 1,2,3,5;
C) 1,2,3,6; D) 1,3,4,5;
45. Bo'ritaroq turkumi qaysi oila va sinfga mansub?
A) gulgayridoshlar oilasi, ikki urug'pallalilar sinfi
B) gulgayridoshlar oilasi, bir urug'pallalilar sinfi
C) ituzumdoshlar oilasi, ikki urug'pallalilar sinfi
D) burchoqdoshlar oilasi, ikki urug'pallalilar sinfi
46. Duplikatsiya(a) va reduplikatsiya(b) ga xos xususiyatni aniqlang.
1.xromasomaning o'rta qismini ortishi 2. xromasomaning ayrim qismini ortishi 3.DNK bo'lagini ikki hissa ortishi 4.DNK genomining ma'lum joyga kiritish
A) a-2 b-3 B) a-2 b-4
C) a-4 b-1 D) a-3 b-2
47. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sababchi bo'ladi. Natijada dominant gomozigotali jo'jalar tuxumini yorib chiqolmay halok bo'ladi. Faqat kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi inkubatorida 3000 ta jo'ja tuxumdan yorib chiqdi. Ularning nechitasi normal oyoqli bo'ladi?
A) 2000 B) 1000 C) 750 D) 1500
48. Eco R1 nechta va qaysi bog'larni uzadi?
1)1 ta fosfodiefir 2)2 ta fosfodiefir 3)8 ta H bog' 4)10 ta H bog' 5)12 ta H bog'
A) 2,3 B) 1,3 C) 2,4 D) 1,5
49. Quyidagi organizmlar hujayrasida qachon 16 ta xromatidali xromasoma bo'ladi?
1.drozafila hujayrasini profaza bosqichida 2.olchani hujayrasini anafaza bosqichi 3.no`xatni arxeosporasini telefaza 2 bosqichi 4.tog`olchani birlamchi chang hujayrasini metafaza 2 bosqichi
A) 2,4 B) 1,3 C) 1,4 D) 2,3
50. Ayollar terisining ko'krak sohasidagi bezlardan ajraladigan sut tarkibida yog'lar qancha miqdorda bo'ladi
A) 0,3% B) 4,5%; C) 6,5%; D) 87%;
51. Quyidagi organizmlar hujayrasi qachon 96 xromatidali bo'ladi?
1.qalampirni mikrosporasi 2.shimpanzeni birlamchi

jinsiy hujayrasi 3.gorillani gametagenenez jarayonidagi ko'payish zonasida turgan hujayralar 4.qalampirni arxeosporasi 5.organgutanni tuxum hujayrasi 6.

qalampirni endosperimi

A) 1,5,6 B) 2,5,6 C) 2,3,4 D) 3,4,5

52. Olcha (a), turp (b), qalampir (c) o'simliklarining barg hujayralari kariotipidagi autasoma xromosomalar soni nechtaga teng?

1)48; 2)32; 3)18; 4)16; 5)32; 6)24; 7)46 8)30

A) a- 2; b-3; c-1 B) a-8; b-4; c-7

C) a-4; b-3; c-1 D) a-5; b-3; c-1

53. Quyidagi organizmlar hujayrasida qachon 32 ta xromasoma bo'ladi?

1.tog'olchani o'sish konusidagi hujayralar 2.olchani hujayrasini metafaza bosqichidagi hujayra 3.olchani arxeosporasi bosqichi 4.tog'olchani birlamchi chang hujayrasini metafaza1 bosqichi

A) 1,3 B) 2,4 C) 1,4 D) 2,3

54. Ikki (a), bir (b), to'rt (c) va ko'p (d) xivchinli hujayralarni juftlab ko'rsating.

1)ulotriksning zoosporasi; 2)volvoks hujayrasi; 3) yashil evglena; 4)ulotriksning gametasi; 5) funariyaning erkaklik gametasi; 6)qirqbo'g'imning erkaklik gametasi; 7)qirqquloqning erkaklik gametasi; 8)gidraning spermatozoidi; 9)gidraning hazm qiluvchi hujayrasi;

10)gidraning bezli hujayrasi

A) a-2, 4, 8; b-3, 9; c-1, 5; d-6, 7

B) a-4, 5, 9; b-3; c-1; d-6, 7

C) a-2, 4, 9; b-3; c-1, 8, 10; d-5, 6, 7

D) a-2, 6, 7; b-3, 8; c-4, 9; d-1, 5

55. Bakteriyalar tomonidan ammiaklarning parchalanishi (a) va hosil qilinishi (b) qanday nomlanadi?

A) a- denitrifikatsiya; b-azotfiksatsiya

B) a- nitrifikatsiya; b- denitrifikatsiya

C) a- ammonifikatsiya; b- denitrifikatsiya

D) a- nitrifikatsiya; b- ammonifikatsiya

56. DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog' bor, qo'shni nukleotidlar orasi 0,34 nmga teng. Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlar o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK molekulasida 598 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa hamda G umumiy nukleotidlar sonining 20% ini tashkil qilsa, A va T orasidagi vodorod bog'lar sonini toping

A) 240 B) 180 C) 360 D) 720

57. Oziq zanjiri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) O'simlik - toshbaqa - boltayutar - sarisor

B) O'simlik - kaltakesak - mangust - ilon

C) O'simlik - sichqon - ilon - tipratikan

D) O'simlik - sichqon - tipratikan - ilon - tulki

58. Gastrulatsiyasi tashqi muhida boruvchi organizmlarni aniqlang.

1.pavituxa 2.triton 3.manta 4.chayon 5.salamadra 6. timsoq 7.tikandum 8.kakku

A) 3,4,7 B) 2,8,4 C) 1,3,7 D) 1,2,5

59. Mitozga xos bo'lgan javobni ko'rsating.

A) hayvonlarda gaploid to'plamli qiz hujayrani hosil bo'lishi

B) generativ chang hujayrasni hosil bo'lishi

C) arxeosporani bo'linishi,vegetativ chang hujayrasini hosil bo'lishi

D) mikrosporani hosil bo'lishi,arxeosporani bo'linishi

60. Organizmda yog'lari va moylar qanday hosil bo'ladi

A) murakkab yog' kislotalar va glitserin reaksiyasidan;

B) oddiy atsetat kislotalar va glitserindan;

C) gletserin va glukoza reaksiyaga kirishib;

D) asetat kislotalari reaksiyaga kirishib;

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. **Shoshilmay sovib qolgan kaboblarni yig'ib oldi, so'ng, indamay orqasiga tisarilarkan, patirga imo qilib ko'zini qisdi.** Berilgan gap turini toping.

A) egasi umumlashgan gap B) egasi ma'lum gap

C) egali gap D) egasi noma'lum gap

62. Alini ko'rsang, mendan salom ayt.

Ergashgan qo'shma gap turini aniqlang.

A) ega ergash gapli qo'shma gap

B) kesim ergash gapli qo'shma gap

C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

D) hol ergash gapli qo'shma gap

63. Qaysi qatorda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A) Jahon Tinchlik Kengashi

B) Oy Yer atrofida aylanadi

C) 9 may - Xotira va qadrlash kuni

D) Qor yog'di, don yog'di

64. Ma'lumki to'rtta son shakli "sehrli sonlar" sanaladi.

Ushbu "sehrli sonlar" tarkibida nechta jarangsiz undosh mavjud?

A) 8 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 5 ta

65. Yomg'ir - suyuq tomchi holidayi atmosfera yog'ini.

Ushbu parcha qaysi uslubga mansub?

A) rasmiy uslub B) badiiy uslub

C) publitsistik uslub D) ilmiy uslub

66. Quyida berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat lablanmagan unlilar ishtirok etgan?

A) O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

B) Hali Vali, Soli sholi o'rdi.

C) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'p koptok.

D) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.

67. Bosh gapda qaralmish vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan ega

ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi.

B) Kim birovlarga yaxshilik tilasa, yo'llarini ziyo yoritadi.

C) Kimki erta bahordan dalaga chiqib ter to'ksa, u kuzda

mehnatining rohatini ko'radi.

D) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini

to'xtatmaydi.

68. Iboralar qaysi gapda ega vazifasida qo'llangan?
 A) Turmushdan orqada qolayotgani uchun rosa pōstagini qoqishdi.
 B) Ayniqsa, Mehrining onasi menga kōz ochirmaydi.
 C) Bu xotin-qizlarning boshini bir joyga qovushtirish ham juda qiyin ekan.
 D) Bilasizki, sirkam suv kōtarmaydigan shoirlardanman.
69. Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh ota dedi Sayramov Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang.
 A) qo'shtirnoq, vergul, tire, nuqta
 B) qo'shtirnoq, vergul, qo'shtirnoq, tire, nuqta
 C) qo'shtirnoq, vergul, qo'shtirnoq, vergul, tire, nuqta
 D) qo'shtirnoq, vergul, qo'shtirnoq, tire, nuqta
70. Qaysi so'zdagi yasovchi qo'shimcha ko'makchilar bilan sinonim bo'la oladi?
 A) salomlash B) qo'qqisdan
 C) yovuzlarcha D) uylarga
71. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo'lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol. Berilgan gapda nechta moslashuvli so'z birikmasi mavjud?
 A) 4 B) 2 C) 3 D) 5
72. **O'z gunohingni so'rab eldin o'tin(1), Nafrat o'ti(2) ichra bo'lmasdin o'tin(3).** Ushbu parchada belgilangan so'zlar qaysi so'z turkumlariga tegishli?
 A) 1, 3, - fe'l, 2 - ot B) 1, 2 - fe'l, 3 - ot
 C) 1 - fe'l, 2, 3 - ot D) 1, 2, 3 - ot
73. **Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad - milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.** Ushbu gapda nechta yasama sifat mavjud?
 A) 1 B) 3
 C) yasama sifat qatnashmagan D) 2
74. Qaysi so'zlarda so'z yasaliş jarayonida tovush ikkilanishi yuz bergan? 1) qo'llar; 2) achchiq; 3) issiq; 4) yellar; 5) sassiq
 A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 5
 C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5
75. «Batsiq» so'zining hozirgi kundagi sinonimini toping.
 A) g'arb B) shimol C) janub D) sharq
76. **Ariqlardagi suvlar qaymoq bog'lagan.** Berilgan gap qaysi uslubga xos?
 A) badiiy B) so'zlashuv
 C) ilmiy D) rasmiy-idoraviy
77. **Koinotdagi barcha narsa muayyan va ma'lum qonunga bo'ysunadi.** Ushbu gapda olmosh qaysi turdagi so'z birikmasi tarkibida kelgan?
 A) boshqaruv B) bu gapda olmosh qo'llanmagan
 C) moslashuv D) bitishuv
78. **Ahli suxanlar ko'p juda, lekin bahsi mazmundan judo.** Ushbu gapda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llanilgan?
 A) paronim B) sinonim
 C) omonim D) antonim
79. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
 xanuz, xiylakor, hushyor, hijjalamoq, nomoyon
 A) 3 B) 1 C) 2 D) 4
80. **Do'ppisini osmonga otmoq** iborasiga zid bo'lgan so'zni toping.
 A) xursand B) hayratlanmoq
 C) g'azablanmoq D) xafa
81. Kul Tigin bitigida yozuvlar qanday tarzda bitilgan?
 A) o'ngdan chapga va pastdan yuqoriga qarab
 B) chapdan o'ngga va pastdan yuqoriga qarab
 C) o'ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab
 D) chapdan o'ngga va yuqoridan pastga qarab
82. M. Osimning "Zulmat ichra nur" asarida kim haqida "o'z suhbatini bilan majlisga jon kirgizar edi" deb aytilgan?
 A) Mirsayid B) A. Navoiy
 C) Muhammad Ali D) A. Jomiy
83. Qaysi yozuvchi "O'zing bilmagan narsani yozma", "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top" degan qoidaga hamisha amal qilgan?
 A) M. Yusuf B) S. Sheroziy
 C) T. Malik D) Ch. Aytmatov
84. Ezopning qaysi masali so'ngida kimki o'ziga yaxshilik qilganlarga yomonlik qilsa, u albatta, xudoning qahriga yo'liqadi, degan xulosa chiqadi?
 A) "Burgut, zag'cha va cho'pon"
 B) "Bo'ri bilan laylak"
 C) "Yovvoyi echkilar bilan cho'pon"
 D) "Kiyik bilan tokzor"
85. "Qutadg'u bilig" dostoni qaysi vaznda yozilgan?
 A) Hazaji musammani maqsur
 B) Ramali musammani mahzuf
 C) Mutaqoribi musaddasi mahzuf
 D) Mutaqoribi musammani mahzuf
86. "Alpomish" dostonida boylovdan ozod bo'lgan Boychibor bir kecha-yu bir kundizda qancha otdan o'zadi?
 A) 460 otdan B) 420 otdan
 C) 400 otdan D) 440 otdan
87. "Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur", degonlarg'a, Tovuqcha aqli yo'q, axlatni titkonlarg'a o't tushsin. "Xotunlar mol qatori sotilur", deb mushtiparlarni, Zulayho, Layli, Shirinni tan olmag'onlarg'a o't tushsin".
 Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?
 A) Uvaysiy B) Anbar Otin
 C) Nodira D) Dilshodi Barno
88. "Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay" ushbu gapni kim aytgan?
 A) Shahodat mufti B) Abdurahmon
 C) Kalonshoh mirzo D) Muhammad Rajabbek
89. Qaysi shoir "yosh ma'suma kelinchakning ikki o'rim

sochi- kokilini tarab turgan holati qiyosida Amu bilan Sirdaryoning to'lib oqib, turgan manzarasini tasavvur etadi?"

- A) Oybek B) E.Vohidov
C) O'.Hoshimov D) H.Olimjon

90. Qo'shma vaznda bo'g'inlar miqdori bir xil bo'lmagan misralaming muayyan tartibi she'r oxirigacha saqlanadimi?

- A) saqlanmaydi.
B) ba`zan saqlanadi, ba`zan saqlanmaydi.
C) qat'iy saqlanadi.
D) To'g'ri javob yo'q.